

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## O‘ZBEK XALQ MAQOLLARNING O‘ZBEK VA XORIY OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISH TARIXI

Vazira DAVIROVA,

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290921>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarining o‘zbek va xorij olimlari tomonidan to‘planishi va o‘rganilish tarixi xususida so‘z boradi. Xalq maqollarini to‘planishi va ilk bor tadqiq etishdagi olimlar M.Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Gulxaniy, H.Vanberi, N.Ostroumov va B.Atalay, V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, P.K.Juze, S.Ye.Malov, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, N.A.Baskakov kabi chet el olimlari va Fitrat, S.Mutallibov, N.Mallayev, G‘.Abdurahmonov, H.Ne‘matov, Q.Sodiqov kabi olimlar xizmatlari o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** maqol, devon, tarix, takomillashuv, evolyutsiya, badiiy tafakkur, ijtimoiy hayot, tuzum.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается история сбора и исследования узбекских народных пословиц узбекскими и зарубежными учеными. Среди ученых, занимавшихся сбором и первичным исследованием народных пословиц, можно выделить таких ученых, как М.Кошгари, Юсуф Хос Ходжиб, Гульханий, Х.Ванберри, Н.Остромов, Б.Аталай, В.В.Бартольд, А.Н.Самойлович, П.К.Жузе, С.Е.Малов, А.Н.Кононов, А.К.Боровков, Н.А.Баскаков, а также узбекские ученые, такие как Фитрат, С.Муталлибов, Н.Маллаев, Г.А.Абдурахманов, Х.Нематов, Q.Содиков. Исследуются их вклад в изучение пословиц.

**Ключевые слова:** пословица, диван, история, совершенствование, эволюция, художественное мышление, общественная жизнь, система.

**Annotation.** This article examines the history of the collection and study of Uzbek folk proverbs by both Uzbek and foreign scholars. Among the scholars involved in the collection and primary research of folk proverbs, prominent figures include M. Koshgari, Yusuf Khoss Khodjib, Gulkhaniy, H. Vanberry, N. Ostromov, B. Atalay, V.V. Bartold, A.N. Samoylovich, P.K. Zhuzhe, S.E. Malov, A.N. Kononov, A.K. Borovkov, N.A. Baskakov, as well as Uzbek scholars such as Fitrat, S. Mutalibov, N. Mallayev, G.A. Abdurahmanov, K. Nematov, and Q. Sodikov. The article explores their contributions to the study of proverbs.

**Keywords:** proverb, divan, history, improvement, evolution, artistic thinking, public life, system.

Maqol – asrlar osha kelayotgan xotira, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, hayot haqidagi falsafiy xulosalari, tarixi, madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi ixcham shaklga ega ibrat. U o‘zida o‘tmishni jam etish jihatdan bugun va kelajak uchun dastur bo‘la oladi. Shu bois o‘z tarixi, o‘z qadriyati, tafakkur rivoji uchun qayg‘urgan xalq maqollarni og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llash orqali uni asrashga, to‘plash, o‘rganish va ommalashtirishga intiladi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Maqollarga qiziqish va ularni xalq hayoti qonuniyatlari sifatida qabul qilish ilk yozma manbalar shakllangan davridayoq yuzaga kelgan. Izlanishlarimiz bugun maqol deb qaraladigan ibratomuz fikrlarning bitiktoshlar, tarixiy solnoma, yozma manbalarda u yoki bu shaklda uchrashini tasdiqlaydi. Buni esa o‘z davri uchun muhim xulosaviy xarakterga ega fikrlarning keyingi avlodlarga yetkazilishidagi ilk harakat sifatida baholash mumkin. Dastlab asosiy mazmuni dalillash, fikrni quvvatlash maqsadida manbalarga kiritilgan ibratli hukmlarga keyinchalik alohida hodisa sifatida qarash, ularga nisbatan fikr bildirish va bu fikrlarni xalqning nodir xazinasini sifatida qayd etib borish lozim ko‘rilgan. Turkiy xalqlar orasidagi maqollarni bir joyda jamlash (garchi bir o‘rinda bo‘lmasa-da), ya‘ni maqolshunoslik harakatini O‘rta asrlar qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy boshlab berdi. Uning “Devonu lug‘ati-t-turk” muqaddimasida bitgan: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘lar, **maqollar**, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, **qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim**”[9.34.]– degan e‘tirofi olimning turkiy xalq maqollarining ilk to‘plovchisi va talqinchisi ekanini dalillaydi.

Bilamizki, “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining tadqiqi XX asrdan boshlandi. Asarni ilk bor adabiy yodgorlik sifatida turk olimlari Najib Osim, Fuod Ko‘prulzoda, Basim Atalay, Rifat Bilgi (Kilisli); xorij olimlari V.Radlov, K.Brokellmanlar o‘rgandilar. Abdurauf Fitrat esa o‘zbek koshg‘ariyshunosligini boshlab berdi va 1927-yilda “Eng eski turk adabiyoti namunalari” nomi bilan risola e‘lon qildi. Mazkur risolada Fitrat dastlab Mahmud Koshg‘ariy haqida ma‘lumot berib, uning qomusiy olim ekanligini ta‘kidlaydi. Asarning ilmiy qimmatini alohida e‘tirof etib, shunday deydi: “Devoni lug‘ot”ning ko‘p so‘zlari ostida maqollardan, she‘rlardan dalillar, toniqlar keltirilgan. Bular to‘qquz-o‘n asr burung‘i turk adabiyotining eng qimmatli namunalari. Turkiyot bilan mashg‘ul bo‘lg‘anlar bu she‘rlarg‘a, bu maqollarg‘a shuning uchun juda katta ahamiyat beradir. Usmonli turkshunoslardan Najib Osim afandi “Devonu lug‘ot”dag‘i maqollarni olib izoh qilg‘an edi”[17.12.]. Demak, “Devon”dagi maqollarga munosabat va ularning ma‘nosini o‘rganishni turk tilshunosi Najib Osim boshlab bergan. Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov Abdurauf Fitrat ham “Devonu lug‘ati-t-turk” tarkibidagi qo‘shiq va maqollarni o‘ziga xos sarlavhalar ostida to‘plaganini qayd etadi[5.122.]. Darhaqiqat, Fitrat “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi tizmalarni ikkiga: to‘rtlik va ikkiliklarga ajratgan va ikkinchi qismda ta‘limiy xarakterda bo‘lg‘an ikkiliklarni 23 nomda mavzulashtirib bergan. Jumladan, “Mehmon tutush to‘g‘risida” sarlavhasi ostida keltirilgan parchaga diqqat qilsak,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

uning tuzilish va mazmun jihatdan bugungi maqollarimiz bilan o‘xshashligini ko‘ramiz:

Qo‘shni, qunum, ag‘ishqa qilg‘il inkor ag‘irliq,  
Artut alib anung‘il azku tovar ug‘urluq.

(Qo‘shni, qo‘noq ham qabila kishilariga yaxshilik, hurmat qil, Alarning birortasidan bir hadya olsang, uning o‘rnini tutarliq yaxshi bir narsa tayyorla)[17.84.]. Abdurauf Fitratning jami 74 ta ikkilikni “O‘g‘liga nasihat”, “Tarbiya to‘g‘risida”, “E‘tiqodiy bir parcha”, “Boyliq to‘g‘risida”, “Mehmon to‘g‘risida”, “Zamon to‘g‘risida” kabi mavzular ostida ajratib berishini o‘zbek maqolshunosligidagi dastlabki o‘ziga xos ilmiy yondashuv sifatida baholash mumkin.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili taraqqiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega bu asar B.Atalay, V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, P.K.Juze, S.Ye.Malov, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, N.A.Baskakov kabi chet el olimlari va Fitrat, S.Mutallibov, N.Mallayev, G‘.Abdurahmonov, H.Ne‘matov, Q.Sodiqov kabi o‘zbek tilshunoslari tomonidan turli jihatdan tadqiq etilgan. Biroq asar tarkibidagi maqollar saralanib chop etilgan bo‘lsa-da, Yo.Saidov (lug‘atda)[16], hali folklorshunoslik nuqtayi nazaridan to‘liq tadqiqini topmagan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini faqat maqollarni o‘zida jamlovchi asarlar sirasiga kiritib bo‘lmaydi, biroq olimning o‘zi aytgan fikriga qarab, uning xalq maqollariga alohida ahamiyat bergani va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan xalq maqollarini yig‘ishga uringani va bu noyob asar xalq og‘zaki ijodi xazinasini keyingi avlodlarga yetkazishni maqsad qilgani ayon bo‘ladi. “...toki ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga (tinglovchilarga), naql qiluvchilar esa, o‘z navbatida, shu tilda so‘zlovchilarga yetkazsin. Shuning uchun ham bularning hammasini mazkur asarda to‘pladim”[8.25.]. Shu nuqtayi nazardan akademik T.Mirzayevning quyidagi xulosalari e‘tiborlidir: “Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta‘bir joiz bo‘lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi u epizodik xarakterda bo‘lsa-da, munosabatda bo‘lingan hollarga ham duch kelamiz. Bunda XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnografi Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari yorqin misol bo‘la oladi”[1.4.]. Alohida ta‘kidlash lozimki, Mahmud Koshg‘ariyning sa‘y-harakati bilan XI asrda qo‘llangan turkiy xalq maqollarining 295 tasi bizga qadar saqlanib qolgan. Bu maqollarni keyingi davrda yaratilgan mumtoz asarlar tarkibidagi maqollar bilan chog‘ishtirish asosida xalq maqollarining tadrijiy evolyutsiyasini o‘rganish mumkin.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Mahmud Koshg‘ariydan so‘ng xalq maqollariga alohida munosabat va e‘tibor XIX asrga qadar uchramaydi. Mumtoz adabiyot rivojlanishi va taraqqiy etishi jarayonida xalq maqollari badiiy asarlar tarkibida badiiy san‘at tarzida keng qo‘llanildi. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sayfi Saroiy, Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy kabi shoirlar ijodida xalq maqollarining o‘rnini alohida baholash mumkin. Biroq xalq maqollari ba‘zi lug‘atlarda va badiiy asar tarkibida she‘riy unsur sifatida faol qo‘llansa-da, ularni alohida to‘plash va ko‘chirish e‘tibordan chetda qoldi.

XIX asrga kelib o‘zbek shoiri Muhammad Sharif Gulxaniy xalq maqollarini yig‘ish va keyingi avlodlarga yetkazishning yangi usulini yaratdi. Ya‘ni u qadim Sharq adabiyoti an‘analari asosidagi xalq og‘zaki ijodi namunalariga tayangan pandnoma asar yaratishga byel bog‘ladi va xalq maqol hamda masallari jamlanmasidan iborat majoziy-allegorik xarakterdagi “Zarbulmasal” asarini yozdi. Bir so‘z bilan aytganda, “Zarbulmasal” xalq maqollarida yashiringan falsafiy g‘oya orqali o‘zbek hayotining XIX asrdagi suvrati chizgisidir.

XVIII – XIX asrlar Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida eng og‘ir va inqirozga yuz tutgan davr sanaladi. Yaxlit bir millat va mamlakatning uch xonlikka bo‘linishi nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy tanazzul ham edi. Shu kichik hududdagi Qo‘qon xonligi, Xorazm xonligi va Buxoro amirligini boshqaruvchi hukmdorlar o‘z dindoshi, millatdoshi bo‘lgan qo‘shni xonlikdan narini ko‘rmay qoldi. Bu uch mamlakat o‘z-o‘zi bilan raqobatchi bo‘lish barobarida o‘zaro dushman ham bo‘lib ko‘rindi. Bu hol bir til, bir dunyoqarash, bir madaniyatga ega bo‘lib uchga bo‘lingan bir xalqning boshiga tushgan ulkan kulfati edi. Muhammad Sharif Gulxaniy xuddi shu davr vakili, xalqning dardi, xohishi, istagini dildan his qilgan erkparvar shoiri edi. “Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida o‘z davrining eng dolzarb masalalarini badiiy ifodalab berdi. Feodal sinfnig chirib borishi, bu sinf xulq-atvorining tanazzuli, mamlakatning vayronligi “Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlarda o‘z ifodasini topdi”[3.4.]. Ko‘rinadiki, shoir yashayotgan davr feodal tuzum ijtimoiy hayotidagi ziddiyatlar va xalq noroziligi nihoyatda taranglashgan payt bo‘lib, mana shu ziddiyatli turmushni majoziy ifodalashga ehtiyoj tug‘ilgan va Gulxaniy shu ehtiyoj o‘laroq xalq tilida, xalq so‘zi bilan ijtimoiy muhit va jamiyatga jabrdiyda xalq nomidan munosabat bildiradi. Shoir o‘sha davr feodal tuzumi haqida yozarkan, o‘z iborasi bilan aytganda, “Na six kuysin, na kabob” qabilida ish tutadi. Ya‘ni tanazzulga yuz tutib borayotgan xonliklar tuzumidagi ijtimoiy illatlarni xalq masallari va maqollari orqali fosh qiladi. Ijtimoiy hayotda bunday tajribalar nihoyatda

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qadimiy bo‘lib, bir paytlar “Kalila va Dimna” asari ham shu tariqa yuzaga kelgan. Adabiyotshunos R.Muqimov “Zarbulmasal”ni xalq masalchiligi ta’siri ostida yozilgan, lekin shu bilan birga, yozuvchining siyosiy qarashlarini o‘zida to‘liq aks ettirgan original hajviy, nasriy asar deb baholaydi”[11.305.].

Asarning badiiy qiymati bugungi kun uchun qanchalik bebaho bo‘lsa, unda to‘plangan xalq maqollari va og‘zaki ijod namunalari o‘sha davr xalq hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashini o‘zida to‘la aks ettirishi bilan yanada nodir, noyob ijod namunasi sifatida tan olinadi. “Zarbulmasal”da eng ko‘p qo‘llangan og‘zaki ijod namunasi maqol bo‘lib, ularning miqdori uch yuzdan ortadi. Maqollar asar syujyeta jarayonida, personajlar nutqida o‘zaro suhbat asnosida qo‘llanadi.

XIX asrga kelib Muhammad Sharif Gulxaniy xalq maqollarini yig‘ish va keyingi avlodlarga yetkazishning yangi usulini yaratdi. U o‘zining “Zarbulmasal” asarida 300 dan ortiq maqol qo‘llagan bo‘lsa, 1871-1924-yillarda yashab ijod etgan Sulaymonqul Rojiyning masnaviy tarzida yozilgan «Zarbulmasal»ida 150 dan ortiq maqol jamlangan. Shuningdek, Sidqiy Xondayliqiyning “Zarbulmasali Sidqiy” asarida 100 ga yaqin maqol savol-javob shaklida berilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran dunyo siyosatining o‘zgarishi va Markaziy Osiyoga tajovuzkorona qarash hamda dunyoning yetakchi hukmron davlatlarining istilochilik harakati tufayli ham xalq og‘zaki ijodiga xorijiy olimlarning e’tibori tushdi. Avvalo, ular josuslik qilish, mamlakat ichki siyosiy ahvolini bilish, xalq hayoti va tabiiy joylashuvi, dunyoqarashi, madaniyatini o‘rganish maqsadida o‘lkashunos olimlar qiyofasida kirib kela boshladilar. Xuddi shunday olimlardan biri vyenger olimi Herman Vamberi bo‘lib, u Xorazm xonligi va Buxoro amirligining tarixi, madaniyatini o‘rgangan. Herman Vamberi o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga qiziqib, ertak, afsona, rivoyat, jumladan, xalq maqollarini yig‘ib nashr ettirgan. “Uning 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga folklor va adabiyotning ayrim namunalari qatori 112 ta o‘zbek maqoli kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan[14.7.]. Nemis va o‘zbek maqollarini qiyosan o‘rganayotgan tadqiqotchi F.Bafoyev shunday ma’lumot beradi: “Dastlab 1865-yilda Vengriya davlat Fanlar akademiyasining filologiya bo‘limi chop etgan “Tilshunoslik axboroti”ning 271-315-sahifalarida o‘zbek folkloridan materiallar, jumladan, 44 maqol, shuningdek, bir qancha ertak va topishmoqlar ham nashr etilgan edi. Bu chet ellarda o‘zbek folkloriga qiziqishning ortib borayotganidan darak berardi. Oradan ikki yil o‘tib, venger olimi Herman Vamberi ham o‘z kitobida o‘zbek xalq maqollaridan namunalar e’lon qiladi”[2.33.].

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

H.Vamberi o‘zbek maqollarini yig‘ibgina qolmay, ularni o‘z ona tiliga tarjima qilib, izohlashga ham harakat qiladi. Bu haqda adabiyotshunos Bahodir Karim, “Ma’lumki, Herman Vamberi 1863-1864-yillarda darvesh qiyofasida O‘rta Osiyoga keladi... Imkoni doirasida manbalarni yig‘ib, o‘zi bilan olib ketadi. “O‘rta Osiyoga sayohat” kitobidan keyin ko‘p o‘tmay Vamberining “Chig‘atoy tili saboqlari” nomli yana bir kitobi bosiladi. Vamberi shu kitobining “Xrestomatiya” qismida bundan roppa-rosa bir yarim asr oldin, ya’ni 1867-yilda xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri – o‘zbek maqollaridan 112 tasining aslini o‘zbek-arabiy hamda lotin imlosida, shuningdek, davomidan olmon tiliga tarjimasini beradi”[6.178], – deb yozadi. H.Vamberining o‘zbek xalq maqollari kiritilgan “Chig‘atoy tili darsligi” kitobi ilk bor 1867-yilda Leypsig (Germaniya)da chop etilgan bo‘lsa, mazkur kitob 1975-yilda Amsterdam (Niderlandiya)da qayta nashr qilingan. Olim ushbu kitobining so‘zboshida shunday yozadi: “Xitoydan Dunaygacha bo‘lgan xalqlarning tillari, ularning ichki va tashqi munosabatlari, keyingi taraqqiyoti – hammasi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir... Bir paytning o‘zida ikki e’tiqodda bo‘lish juda og‘ir ekan. Turkistonning sahro va o‘tloqlarida yalangoyoq, darvesh qiyofasida yurib, til va adabiyotiga oid qimmatbaho materiallar yig‘ib kelganim uchun hech kim hech narsa demasa kerak. Ularning fan rivoji uchun ahamiyati kattadir, degan umiddaman”[13.10.].

“Chig‘atoy tili darsligi”da “Bir qancha o‘zbek maqollari” sarlavhasi ostida keltirilgan o‘zbek xalq maqollari hech qanday qoidaga amal qilmay (alifbo yoki mavzu tartibida), raqamlangan holda avval eski o‘zbek va lotin yozuvida o‘zbek tilida, so‘ng ularning tarjimasini nemis tilida berilgan.

Tarixdan bilamizki, mustamlakaga aylantirilgan millatni butkul o‘ziga buysundirish uchun xalq o‘z tili, dini, urf-odat va an’analaridan uzoqlashtirilgan. Buning uchun dastlab o‘sha xalq hayotini o‘rganish lozim bo‘lgan. Xalq hayotini o‘rganish esa tabiiy ravishda og‘zaki ijod namunalarini yig‘ish, to‘plash, tarjima qilish bilan amalga oshgan. Buning yorqin dalilini fothlik tarixi haqidagi kitoblardan topish mumkin. Chunonchi, qadimgi Rum tarixchisi Kursiy Ruf ma’lumotiga ko‘ra, yunon fотиhi Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni zabt etgach, mahalliy aholidan maqollarni yozib olishni buyurgan. Maqollar Makedonskiy topshirig‘iga ko‘ra to‘plangan, biroq oradan uzoq tarixiy zamon o‘tganligi bois bu manbalar bizga qadar saqlanib qolmagan.

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni zabt etgach, bu hududlarning yer usti boyligi, yer osti qazilma boyliklarigagina emas, balki mehnatkash xalqi, uning o‘tmishu

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kelajagiga ham ega chiqmoqni xohlagan. Buning uchun zimdan mahalliy aholining e’tiqodi va dinini yo‘q qilish, ularni ruslashtirishga qaratilgan siyosiy harakat olib borilgan. Shunday harakatlarning biri, Rossiyadan paydar-pay ilm va fan rivoji niqobi ostida Turkistonga missionerlar, oriyentalistlar jo‘natilishi edi. N.P.Ostroumov ham mana shu g‘oya va maqsadning amali uchun Toshkentga jo‘natilgan o‘tkir bilimli missioner olim edi. U XIX asr oxirlarida Turkiston o‘lkasi etnografiyasini o‘rganishga kirishadi, og‘zaki ijod namunalarini yig‘a boshlaydi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Mahalliy aholining maqol, topishmoq, afsona, ertak, qo‘shiq, urf-odat, o‘yinlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish biz uchun mahalliy aholining psixologiyasini tushunishga yordam beradi va ular hayotining turli qirralarini anglash uchun kalit vazifasini o‘taydi”[15.110.]. N.Ostroumov to‘plagan materiallarini “Сарты. Этнографические материалы” nomi bilan chop ettirdi. Risola uch jilddan iborat bo‘lib, 1891-1895-yillar oralig‘ida Toshkentda “Ф. И. Г. Бр. Каменские” litografiyasida chop etilgan. To‘plamning birinchi jildida mahalliy aholi ziyolilari va rus-tuzem maktabi o‘qituvchilari tomonidan yozib olingan maqollarning 1100 tasi eski o‘zbek yozuvida berilgan. Uchinchi jild esa to‘laligicha o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlariga bag‘ishlangan. Bu to‘plamda N.Ostroumov mingta maqolni rus tiliga o‘girib, 21 mavzu ostida bergan. Bundan tashqari, XIX asrning yirik shoiri Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini yanglishib, maqollarga asoslangan xalq ertagi deb, “Сова, сыч и филин” nomi bilan risola so‘ngida joylashtiradi. Ertakdan so‘ng o‘zbek xalq maqollari haqidagi ilmiy va amaliy qarashlarini “Sartlarning maqol, matallari haqida ba’zi mulohazalar” (“Несколько замечаний относительно пословиц и поговорок сартов”) maqolasida bayon etadi. Maqola o‘zbek xalq maqollarining o‘ziga xosligi, ularning shakllanish omillari, shakli va badiiyati haqidagi rus olimining ilk ilmiy qarashlari bayon etilgani bilan g‘oyatda qimmatlidir.

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarini tadqiq etishda quyidagi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

1. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr ettirish.
2. O‘zbek xalq maqollarini rus tiliga tarjima etish.
3. O‘zbek va rus maqollarini qiyosan o‘rganish.
4. O‘zbek xalq maqollarining genezisi va o‘ziga xosligini tadqiq etish.
5. O‘zbek xalqining dunyoqarashi, psixologiyasi va xarakterini xalq maqollari orqali bilib olish.

N.P.Ostroumov xalq maqollari va matallarining tadqiqida rus folklorshunoslarining fikriga tayanib ish ko‘radi. Jumladan, xalq maqollarini to‘plash

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

va nashr ettirish xususida V.Dalning ko‘rsatmalariga amal qilsa, maqol va matallarni o‘zaro farqlashda prof. F.Buslaev, prof. A.Potebnya fikrlariga tayanadi. To‘g‘ri, bu olimlarning rus maqollari va matallari xususida qilgan ishlari tahsinga sazovor, biroq ularning bu qarashlarini to‘laligicha o‘zbek xalq maqol va matallarida qo‘llash hamisha ham o‘zini oqlayvermaydi. Afsuski, keyinchalik ham folklorshunosligimizda bu qarash davom etdi, shu bois o‘zbek maqol va matallarini farqlashda haligacha bir qarorga kelinmadi.

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarining shakllanish omillarini ham bir qadar tadqiq etishga harakat qiladi. Olim xalq maqollarining genezisi haqida fikr bildirib, shunday deydi: “Sartlarning maqol va matallari kelib chiqishi o‘ziga xos qadimiy tarixiga ega. Sart maqollarining aksariyati umumturkiy bo‘lib, boshqa turkiy xalqlarda ham qo‘llanadi. Shuning uchun aynan bir maqol qirg‘izlar, tatarlar va turklar nutqida ham uchraydi. Ba‘zi maqollar sartlar bilan yonma-yon yashaydigan fors-tojik tillaridan o‘zlashgan”[15:114] Darhaqiqat, o‘zbek xalq maqollarining ildizi qadimgi turkiy xalqlarning ilk ibtidoiy davrlariga borib taqaladi.

Olim o‘zbek xalq maqollarining shakllanishida uchta asos mavjud deb qaraydi: “Sartlarning kelib chiqishi umumturkiy bo‘lgani kabi ularning maqol va matallarining ham shakllanishi umumiylik kasb etadi. Shuning uchun sart maqollaridagi mazmuni faqat sartlarning maishiy hayotiga tegishli deyish to‘g‘ri emas. Shunday bo‘lsa-da, ularni o‘rganish alohida e‘tibor talab qiladi. Chunki ular sartlarning ma‘naviy merosini tashkil qiladi”[15:117]. Ko‘rinadiki, xalq maqollarining asosiy qismi xalqning maishiy hayot tajribalari asosida shakllanadi, ikkinchidan, xalqning diniy qarashlari va e‘tiqodi ham xalq maqollarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Uchinchidan, yozma adabiyot ham xalq maqollarining paydo bo‘lishida yetarlicha asos bo‘lishini aytib: “Sart maqollarining shakllanishida diniy e‘tiqod bilan birga, dinga alohida e‘tibor bilan yondashgan va xalq orasidan yetishib chiqqan buyuk shoirlar So‘fi Olloyor, Hazrati Yassaviy kabi ijodkorlarning ham ta‘siri kattadir”[15:117], – deya ta‘kidlaydi.

Xullas, rus missioneri N.P.Ostroumov o‘zbek maqolshunosligida o‘zining ilmiy va nazariy qarashlari bilan alohida o‘rin tutadi. U xalq og‘zaki ijodi materiallarini yig‘ishdan va tadqiq etishdan ijtimoiy-siyosiy maqsad ko‘zlagan bo‘lsa-da, o‘zbek folklorshunosligida xalq qo‘shiqlari, ertaklari, maqollari, topishmoqlarining ilk bor yig‘ilishi va nashr qilinishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. Soʻzdan soʻzning farqi bor / Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 4.
2. Бафоев Ф. Ўзбек ва немис халқ мақолларининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.33.
3. Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б.4.
4. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 529
5. Жўрақулов У. Фитратнинг илк ёзма адабиётимиз тарихига оид тадқиқотлари / Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан. – Б. 122.
6. Карим Б. Херман Вамбери – Ўзбек мақоллари таржимони // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2018. – № 12. –Б. 178-183.
7. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 14.
8. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. I жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 25.
9. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1963.
10. Қосимов С. Сўзбоши / Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 3.
11. Муқимов Р. Муҳаммад Шариф Гулханий ва унинг “Зарбулмасал” асари. Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 305.
12. Муталлибов С. XI асрнинг улуғ тилшунос олими Маҳмуд Кошғарий/
13. Нурмуродов Ё. Ўзбек фольклори немис тилида. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.10.
14. Нурмуродов Ё.Б. История изучения и проблем научно-литературного перевода узбекского фольклоре на немецкий язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент: Фан, 1983. (Нурмуродов Ё. Ўзбек фольклори немис тилида. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.7.)
15. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Выпускъ третий. Пословицы и загадки сартовъ. – Тошкент: Еипо-Литография торг. Дома. Ф. и. Г. Бр. Каменские, 1895. – С. 110.
16. Саидов Ё., Муқимова Г. “Девону луғотит турк”даги халқ мақоллари (луғат-маълумотнома). – Бухоро: Бухоро, 2015.
17. Фитрат А. Энг эски адабиёт намуналари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б.12.